

ACTIVE MODELS OF CALQUES IN THE PERSIAN LANGUAGE

Dilfuza Rafukjanovna AKHMEDOVA

Doctor of Philology, Associate Professor
Higher School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

FORS TILIDA KALKALARNING FAOL MODELLARI

Dilfuza Rafukjanovna AXMEDOVA

Filologiya fanlari doktori, dotsent
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

АКТИВНЫЕ МОДЕЛИ КАЛЕК В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Дилфуза Рафукжановна АХМЕДОВА

Доктор филологических наук, доцент
Высшая школа иранистики и афганистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан dilakhmedova@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Axmedova D.R. Fors tilida kalkalarning faol modellari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 6. — B. 72-91.

<https://doi.org/10.36078/1735293648>

Received: October 25, 2024

Accepted: December 17, 2024

Published: December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Along with word formation based on the material already existing in the language, which is the main way of enriching each language, it's crucial to stress that various kinds of borrowings, as a result of contact between peoples, play, as is known, a large role in the formation of new words and expressions. This highlights the dynamism and evolution of language. Whatever forms this contact takes, the results of linguistic communication are influenced not only by contacts between peoples and the structure of languages but also by non-linguistic facts: economic and political conditions of linguistic contacts, the scientific and cultural prestige of the people speaking a given language, its numbers, etc. Naturally, all types of linguistic contacts, are not carried out by themselves but by people speaking these languages. The environment where language contacts are carried out is human society, the psyche of people; the place where the results of these contacts are reflected in the structure of languages. This circumstance provides the basis for distinguishing between language contacts and their results. The study of this issue is important not only for general linguistics and the study of word formation types of certain languages but also makes it possible to correctly assess the extent of the influence of one language on another, which is evidence of the influence of culture, in the broad sense of the word, of one people on the culture of another. The analysis of calques, as well as other processes occurring in the vocabulary of languages, is of interest for history, the history of science, technology, culture, etc., since all this is closely connected with human activity in all spheres of life.

Keywords: neologism; tracing; borrowings; lexeme; full tracing; semi-tracing; phraseological units; word-formation tracing; semantic tracing; method of finding a conceptual equivalent; prefix.

Annotatsiya. Har qanday tilni boyitishning asosiy usuli tilda mavjud bo'lgan material asosida so'z yasaliishi bilan bir qatorda, yangi so'z va iboralar hosil bo'lishida xalqlar o'rtasidagi aloqa natijasida turli o'zlashtirishlar ham o'rin egallaydi. Ushbu aloqa qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, lingvistik aloqa natijalariga nafaqat xalqlarning aloqalari va tillarning tuzilishi, balki tilga oid bo'lmagan faktlar ham ta'sir qiladi: til aloqalarining iqtisodiy va siyosiy sharoitlari, ilmiy va madaniy aloqalar, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning mavqei, uning ko'pligi va boshqalar. Til aloqalarining barcha turlari, tabiiyki, o'z-o'zidan emas, balki shu tillarda so'zlashuvchilar orqali amalga oshiriladi. Barcha til aloqalari sodir bo'ladigan muhit — inson jamiyati, inson ruhiyati hisoblanadi. Bu aloqalarning natijalari aks ettiriladigan joy tillarning tuzilishidir. Bu holat til aloqalari va ularning natijalarini farqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu masalani o'rganish nafaqat umumiy tilshunoslik va ayrim tillarning so'z yasaliish turlarini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega, balki bir tilning boshqa tilga ta'sir darajasini to'g'ri baholash imkonini beradi, bu ta'sirning dalilidir. Kalkalash hodisasini tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki boshqa fanlar doirasida ham qiziqish uyg'otadi, chunki bularning barchasi hayotning barcha sohalarida inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Kalit so'zlar: neologizm; kalka; o'zlashmalar; leksema; to'liq kalkalash; yarim kalkalash; frazeologizmlar; so'z yasovchi kalka; semantik kalka; konseptual ekvivalent topish usuli; prefiks.

Аннотация. Наряду со словообразованием на базе существующего уже в языке материала, являющимся основным способом обогащения каждого языка, в образовании новых слов и выражений большую роль играют, как известно, и разного рода заимствования, как результат соприкосновения народов. Какие бы формы ни принимало это соприкосновение, на результаты языкового общения влияют не только контакты народов и структуры языков, но и факты неязыкового характера: экономические и политические условия языковых контактов, научный, культурный престиж народа, говорящего на данном языке, его многочисленность и т. д. Все типы языковых контактов, естественно, осуществляются не сами по себе, а через людей, говорящих на данных языках. Средой, где осуществляются контакты языков, является человеческое общество, психика людей; местом, где находят отражение результаты этих контактов — структура языков. Это обстоятельство и дает основание для разграничения контактов языков и их результатов. Исследование данного вопроса имеет значение не только для общего языкознания и изучения типов словообразования определенных языков, но и дает возможность правильно оценить размеры влияния одного языка на другой, что является свидетельством влияния культуры, в широком смысле этого слова, одного народа на культуру другого. Анализ калькирования, как и других процессов, происходящих в словарном составе языков, представляет интерес и для истории, истории наук, техники, культуры и т. д., так как все это тесно связано с деятельностью человека во всех сферах жизни.

Ключевые слова: неологизм; калька; заимствования; лексема; полная калька; полукалька; фразеологизмы; словообразовательная калька; семантическая калька; способ нахождения понятийного эквивалента; префикс.

Kirish

Kalkalash juda ko‘p lingvistik masalalarni qamrab oladi va shunga mos ravishda uni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mumkin: chet tilidagi matnni tarjima qilish, bir tilning boshqa tilga ta‘siri, ma‘lum bir tilning lug‘at boyligini to‘ldirish, o‘zlashtirilgan elementlardan izlanish jarayonida foydalanish va boshqalar. Sanab o‘tilgan jihatlarning har birini yoritish uning boshqa tomonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu hodisaning mohiyatini so‘z yasalishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish ekvivalent bo‘lmagan lug‘atni tarjima qilish kabi amaliy muhim masalani yaxshiroq tushunishga hamda izlanish jarayonida o‘zlashtirilgan elementlardan foydalanish masalasini ko‘rib chiqishga yordam beradi.

Mavzuning maqsadi. Tadqiqot obyektimiz ham bugungi kun uchun ahamiyatli va dolzarb hisoblangan tilning boyish usulidan biri bo‘lgan kalkalash masalasiga bag‘ishlanadi. Bunda hozirgi kunda fors tiliga ingliz tilidan kirib kelayotgan neologizmlarning o‘zlashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Fors tilida kalka va neologizmlar bo‘yicha Ali Hadjarian, Karine Megerdoomian (1), Alipanahi Fatemeh, Mahmoudi Ra‘na (2), V.V. Yeliseyeva (3), K.N. Yeremina (4), Y.V. Marinova (5), V.I. Mesamed (6), Moinzade Ahmad (7), Momeni Fereshteh, Shahla Raghibdoust, Robab Teymour (8), G.G. Nadjafov (9), L.S. Peysikov (10), T.A. Pimaxina (11), A. Quronbekov (12), Sh.Rahmatullayev (13), Rasool Pasha Abgarmi, Vida Shaghaghi (14), A.A. Reformatskiy (15), A.A.Romanchenko (16), Y.A. Rubinchik (19), C.Sager (20), E.Shoahmedov (21), Yule George (22) kabilarning ishlarini sanab o‘tish lozim.

Mavzuning vazifalari quyidagilardan iborat.

- fors tilidagi kalkalash masalasiga doir nazariy bazani shakllantirish;
- akademiya taklif qilgan kalkalangan neologizmlarni jamlash;
- to‘plangan terminlar orasidan prefiksli kalkalarni ajratish;
- to‘plangan terminlarni leksik va semantik jihatdan tahlil qilish;
- gazeta, jurnal va internet saytlaridan olingan misollar asosida kalkalarni o‘rganib chiqish.

Keyingi vaqtlarda lug‘atning boyish jarayonida so‘z yasashdan ko‘ra o‘zlashtirish ustun bo‘lib bormoqda. Chunki o‘zlashtirish — so‘z yasashga nisbatan yengil yo‘l. Leksema o‘zlashtirish bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita leksema olish yo‘li bilan voqe‘ bo‘ladi. Bu yerda ikki hodisani farqlash kerak: a) bir tilga ikkinchi bir tilning leksemasi o‘zlashadi; b) o‘zlashtirilayotgan leksema o‘z navbatida o‘sha tilning o‘zi uchun ham o‘zlashma bo‘ladi (13, 76).

Leksemalar asosan ikki yo‘l bilan o‘zlashtiriladi. 1) jonli so‘zlashuv orqali; 2) bosma manabalar orqali. Leksema o‘zlashtirishning usullari ikki turli: o‘zicha olish va kalkalab olish.

Kalkalab olishda o‘zlashtirilayotgan leksemaning leksik ma‘nosi va ma‘noli qismlarga bo‘linishi saqlanadi, lekin o‘zlashtiruvchi tilning materiali bilan to‘ldiriladi. Ikkinchi til leksemasida qismma-qism nusxa olish yo‘li bilan yasalgan (tuzilgan) leksema kalka deyiladi (13, 79).

Ko‘chirma (kalka) jarayoni o‘zga tildan biron-bir morfema, so‘z, birikma yoki frazeologik iborani o‘z til vositalari bilan ko‘chirish yoki o‘xshashini topishga aytiladi. O‘zlashmalarning tarkibiy turlariga ko‘ra fors tilidagi ko‘chirmalar yasama so‘z, frazeologik va semantik turlariga bo‘linadi. Yasama ko‘chirmalar chet tilidagi yasama so‘zlarning morfem tarkibi yoki uning bo‘laklarini aynan takrorlovchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi (12, 37).

Kalka termini “calque” fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u Charlz Balli tomonidan fanga kiritilgan. Biroq Ch. Balli o‘z izlanishlari davomida bu mavzu hatto 1533-yilda Joan Luis Vivesning De Ratione dicende (ispan-lotin tarjimonligi) asarida *equivalence* termini bilan qo‘llanganligini aytib o‘tadi.

O‘zga til leksemasi tarkibidagi qismlarga o‘z tilidan qism keltirish va bu qismlarni mexanik ravishda birlashtirib, leksema hosil qilish xuddi shu tur misollarda o‘z aksini topgan. Ko‘pchilik kalkalarda ular tarkibidagi qismlar mexanik ravishda emas, balki o‘zlashtiruvchi tilning qoidalari asosida birlashtiriladi. Demak, bunday kalkalarda o‘zlashtiruvchi tilning leksema yasash usuli qatnashadi. Bunday yasashni o‘zicha yasash (ya‘ni boshqa tilning ta‘siridan xoli tarzda yasash) deb bo‘lmaydi, lekin o‘z yasash deb baholash haqiqatga to‘g‘ri keladi. Kalkalash — boshqa tildan terminlarni sun‘iy tarjima qilishdir. Buning natijasida mazkur termin yoki birikma termin tildagi asl ma‘nosidan tashqari yangi bir ma‘no kasb qiladi. Kalkalar o‘z xarakteriga ko‘ra ma‘no kalkasi (bunda terminning ma‘nosi tarjima qilinadi) va struktur semantik kalka, ya‘ni so‘zma-so‘z tarjima, terminning ma‘nosini shu bilan birga terminning tarkibini, ayrim o‘rinlarda so‘z formalarini ham tarjima qiladi. Kalka — “so‘z o‘zlashtirishning eng oliy formasidir”, chunki tilda avvaldan mavjud bo‘lmagan yangi so‘z yoki termin yuzaga keladi (21, 19).

Kalkalash jarayoni o‘zaro ikki tilning natijasida bir so‘zning vujudga kelishidir. Tadqiqotchilarning katta qismi zamonaviy fors tilida kalkalash jarayonining leksik o‘zlashma turiga e‘tibor qaratishgan (4; 10; 6; 9).

O‘zlashma so‘zlardan tashqari, o‘zlashtirish jarayonida birinchi o‘rinda so‘zning akustik tomoni (milliy etimologiyadan kelib chiqib, ba‘zan so‘zlar buzib talaffuz etiladi), keyin esa uning nominativ yo‘nalishi (so‘zning nomlanishi) chet tilida mavjud bo‘lgan so‘zni o‘z tiliga qismlarini tarjima qilish orqali o‘zlashtirish — kalkadir (15, 142).

Kalkani o‘rganish tilning leksik-semantik tizimida ularning kelib chiqish va kirib kelish jarayonini ham bilib olish imkonini yaratadi. Kalkalarni tahlil etish zamonaviy fors tili yangi leksik bilimlarida so‘z boyligi potensialini ko‘rsatadi, zamonaviy fors tilida muloqotda ishlatilayotgan so‘zlarning harakat masshtabiga ta‘sirini aniqlashda yordam beradi (6, 1). Kalkalash jarayoni yangi tushunchani ifodalash uchun terminlar olishning eng oddiy usullaridan biridir. Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mahmud Ahmadinajod 2006-yil 29-iyul hamma davlat tashkilotlari, madaniyat markazlari va o‘quv dargohlarida chet tili yevropa tillari o‘rniga forscha ekvivalentlarni muomalaga kiritish bo‘yicha fors tili akademiyasi uchun maxsus farmoyishlarni taqdim etdi va ushbu akademiyada “terminologiya” yo‘nalishi o‘z faoliyatini boshladi. Hozirgi fors tili lug‘at boyligini boyitishning eng muqobil varianti bu shubhasiz kalkalashdir. Xususan, kalkalash orqali bir qancha meteriologik va

umumiytexnik terminlar, ayniqsa aviatsion va axborot texnologiyalariga oid terminlar ko'plab uchrashi mumkin.

V. Eliseyeva shuningdek, tilda yangi birliklarni shakllantirishning yana bir usuli — bu ikkilamchi nominatsiyani shakllantirishning an'anaviy yondashuvi deb ta'kidlaydi. Ammo bu hodisani qabul qiluvchi tilning o'ziga xos qiymatlarini qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi va buning semantik ma'nosi emas, donor tilining birliklari deb ta'kidlab o'tadi (3, 60).

E. Marinovanning tasnifi boshqa tilshunoslarning kalka haqidagi ta'riflarining barcha elementlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tasnifning asosini til birligining kelib chiqishiga qaratadi: oldindan mavjud bo'lgan yoki yangi yaratilgan (5).

Kalka turlari: Kalkalash asosan ikki xil bo'ladi:

1. To'liq kalkalash. Bunday yo'l bilan hosil qilingan kalkaning barcha qismlari o'z tili materialidan tuziladi.

2. Yarim kalkalash. Bunday kalka tarkibida o'z material bilan bir qatorda o'zlashtirish manbayi bo'lgan tilning materiali ham qatnashadi.

Kalka asli leksema o'zlashtirishdagi grammatik usul hisoblanadi, chunki kalkalash leksema tarkibidagi ma'noli qismlardan nusxa olishga asoslanadi. Ba'zi hollarda esa ikkinchi bir tildagi leksemaning ta'sirida o'sha leksema anglatadigan tushunchani o'zlashtirish sababli qabul qiluvchi tildagi biror leksemaga ana shu leksik ma'no biriktiriladi. Bunday leksik ma'no boshqa tildagi leksema ta'sirida voqe' bo'lgani tufayli kalka deb yuritiladi. Bunday kalka grammatik kalkadan farqlash uchun semantik kalka deb nomlanadi. Semantik kalkada ham nusxa ko'chirish saqlanadi: bir tildagi leksemaga boshqa tildagi muqobili qidirib topiladi va shu topilgan leksemaga o'zlashtirilayotgan leksik ma'no yuklanadi. Umuman, kalkalash yasama leksemada ham, qo'shma leksemada ham, turg'un birikmada ham voqe' bo'ladi (13).

Ko'pchilik olimlar fors tilida uch xil kalka turi mavjudligini ta'kidlaydilar:

- a) frazeologizmlar;
- b) so'z yasovchi va yarim kalka;
- c) semantik kalka (10, 18).

Termin o'zlashtirishda tilning eng kichik komponentlari bo'lgan terminlarga asoslanadi. So'zlar terminlarga qaraganda umumiyroq tushunchadir. Ya'ni "soyabon" so'zi o'z ichiga nafaqat so'z, balki termin tushunchasini ham qamrab olgan. Sager so'zni ma'lum bir til lug'atidagi umumiy ishoraga ega bo'lgan, ammo hech qanday maxsus chegaraga ega bo'lmagan birlik sifatida izohlaydi (20).

Fors tilida termin o'zlashtirish Fors tili va adabiyoti akademiyasi tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu akademiya 1935-yilda Tehronda yagona rasmiy fors tili akademiyasi sifatida tashkil topgan, u Eronda vakolatli tartibga solib turuvchi birlashma hisoblanadi.

Akademiyaning termin yasash kengashi 60 dan ortiq maxsus guruhlardan iborat. Ushbu guruhlar ichida maxsus sohalar uchun (masalan fizika, meditsina kabi) chet tilidagi terminlar uchun ekvivalent topish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar mavjud. Ushbu tadqiqot ishida tanlangan leksik birliklar aniq bir sohaga yo'naltirilmagan.

Shunday qilib, so'zlarni tarjima qilish uchun ikki xil usul mavjud: morfema va so'z. Morfemalar ham erkin, ham aniqdir. Morfemalar ikki xil

bo'ladi: qo'shimcha va asos. Ingliz tilida termin yasashda qo'shimchalarga yetarlicha murojaat qilinadi. Ma'lumki, o'zak ingliz tilida termin yasash jarayonida manba vazifasini bajaradi (22). Holbuki, fors tilida ingliz tilidagi qo'shimchalarni tarjima qilishda turlicha jarayonlardan foydalaniladi (7).

Fors tilida kalkalangan terminlar yasash usullari.

Terminlar to'plamida inglizcha so'zlar ekvivalentini topishning ikki usuli ta'kidlanadi:

1. Konseptual ekvivalent topish usuli: bu usul inglizcha so'zlarning tuzilishidan ko'ra ma'nosi va ta'rifi ko'proq e'tibor qaratadi.

2. Kalkalash: ikkinchi usul, ingliz tilidagi so'zlarning tuzilishi va strukturasi ko'proq e'tibor qaratadi. Boshqa so'z bilan aytganda, chet tilidan kirib kelayotgan so'zning har bir ma'noviy qismi fors tilida ham ma'noviy guruhlarga bo'lish orqali tarjima qilinadi.

Alipanahi kalkalash jarayonini analitik-murakkab metod deb ataydi va ushbu metod so'zning ekvivalentini topishda yaqin o'n yillikdagi eng ko'p uchraydigan jarayon sifatida izohlaydi (2).

U ushbu tartibda, ya'ni analitik-murakkab usul deya nomlashni taklif qilganining sababi, birinchidan, morfemalar birin-ketin analiz qilinib, ularga mos morfemalar topiladi va ular birlashtiriladi. Fors va ingliz tillarida keng foydalaniladigan ushbu usul analitik usul hisoblanadi.

Morfemalar ikki holatga ko'ra tahlil etiladi:

Prefikslarni o'z ichiga olgan morfemalar ikki leksemaga ajratib tahlil etiladi. Bu holatda ular qo'shma so'z holatida deb ham qaralishi mumkin. Chunki ular asos va qo'shimchaga ajraladi.

Shunday qilib, leksemalardan qo'shimchalarni ajratib olishda yagona mezon yo'q. Olimlar bu borada turli qarashlarga egadirlar. Fereshteh Momenining (8) tadqiqotidan kelib chiqib, prefiks bu so'zning old qismida keluvchi aniq morfema bo'lib, u mustaqil qo'llanila olmaydi. Ular doim boshqa bir so'z yoki asos bilan birlashtirilishi kerak. Leksemalar esa o'zi mustaqil qo'llanila oladi va boshqa biror so'zga yoki asosga birikishi shart emas. Masalan *فرا* prefiks hisoblanib, u *yolg'iz o'zi qo'llanilmaydi*, biroq *برون* so'zi leksema hisoblanadi, boshqa so'z va asosga birikmasdan mustaqil qo'llanila oladi.

Neologizmlar — ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy o'zgarishlar tufayli kishilik jamiyatida yangi ma'noga ega bo'lgan o'zlashmalar hisoblanadi. Neologizmlar rasmiy va norasmiy leksik qatlamga ega bo'lishlari mumkin. Boshqa tillardagi kabi ingliz tilida ham yangi so'zlar doim paydo bo'ladi; hozirga kunda neologik bum deb ataluvchi hodisa kuzatilayapti. Ba'zi sohalarida yangi so'zlar fan va texnika taraqqiyoti tufayli paydo bo'lmoqda.

Yangi so'zlar, asosan, universitet o'qituvchilari, gazeta muxbirlari, yoshlar, ijtimoiy kommunikatsiya va mavzularda faol qatnashuvchi va ommaviy axborot vositalariga aloqador shaxslar tomonidan ishlatiladi. Neologizmlar tez-tez gazetalarda uchraydi, chunki gazetalar jamiyat hayoti, fan va texnikadagi o'zgarishlarga hammadan tez ta'sir ko'rsatishadi (8, 56).

Ingliz tilida neologizmlarning ko'plab leksik-semantik guruhlari mavjud bo'lib, ular inson hayotining turli sohalariga tegishli bo'ladi.

Masalan:

- kompyuter va informatika texnologiyalari sohasi: (multi-user, to computerize, to blitz out, to telework, to telecommute, telebanking, videobank);
- lingvistik soha (machine translation, artspeak, sportspeak)
- siyosat va ijtimoiy hayot sohasi (youthquake, pussy-footer, Europarliament, belonger, survivor, welfare mother, dial-a-meal, multiculturalism);
- kriminal soha (neighbor watch, steaming, wolf-pack);
- atrof-muhitni himoya qilish sohasi (acid fog, energy belt, etc.).

T. Pimahina nazari bo'yicha ingliz tilidagi neologizmlarning ko'pchiligi amerikancha variantda bo'ladi. Ingliz tilining amerikancha variantida neologizmlarning deyarli 45 % ilmiy va kasbiy atamashunoslikka tegishli bo'ladi (11, 110).

Siyosiy, ijtimoiy, etnografik neologizmlarni tarjima qilayotganda tarjimon muammolarga duch kelishi mumkin, chunki bu so'zlar maksimal milliy va madaniy spesifikaga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu sababli ingliz tilining lug'at tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili lug'atidagi o'zlashmalarning etimologiyasi va ichki xususiyatlarini bilish ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishga yordam beradi.

Neologizmlar (yunoncha neos — yangi, logos — so'z) — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, qayta qurish, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda. Tildagi umumiy neologizmlar bilan bir qatorda individual uslubiy yoki okkazonal neologizm ham mavjud. Bunday neologizmlar mualliflar tomonidan ma'lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi. Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash(nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari turli bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi. Adabiy til boyligi nafaqat ichki imkoniyatlari asosida, balki boshqa tillardan so'z olish hisobiga ham boyiydi. Ba'zi tarixiy hodisalar ham har qanday tilning leksik va frazeologik qatlamining boyishida katta rol o'ynaydi. Fors tilidagi yangi so'zlarning ko'pchiligi Yevropa tillaridan kirib kelgan neologizmlardir. Fors tilidagi yangi so'zlarning kirib kelishining asosiy sababi xalqaro munosabatlarda ingliz tilining ustunligi natijasidir va shuningdek, kashfiyotlar hamda ba'zi bir innovativ texnologiyalarning rivojlanishi, ularning asosiy qismi ushbu davlatlarga tegishli bo'lishidir.

Umuman olganda, o'zlashtirish jarayoni tarixan tabiiydir. Odamlar va millatlarning o'zaro munosabati tufayli sodir bo'lgan ushbu jarayon fors tilida ham odatiy tusga kirgan. Fors tili lug'ati va so'z yasashining boyligiga qaramay, unda boshqa ko'pgina tillardan o'tgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

Neologizm jarayoni arxaizmda to‘laqonli aks ettirilgan. Fors tilidagi boshqa tillardan kirib kelgan faol so‘zlar hisoblangan ba‘zi neologizmlar mavjud bo‘lib, ular neologizmligini yo‘qotgan va shuningdek o‘zlashtirib olingan.

2001-yilning boshlaridan beri, Fors tili dunyoning eng tezkor rivojlanayotgan tili sifatida kuchli o‘ntalik tillariga kirgan. Fors tilini avtomatik tarzda tahlil etishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri bu faol nutq jarayonida neologizmlar paydo bo‘lishining jadallashayotganidir. Ushbu yangi paydo bo‘layotgan so‘zlarni an‘anaviy leksikada to‘g‘ridan to‘g‘ri topib bo‘lmaydi. Masalan, ingliz tilidan o‘zlashgan داونلود “download” yoki آنلاين “online” va yangicha strukturadagi, forscha so‘z qurilishi prinsplariga asoslangan, فیلترشکن “anti-filter” yoki چتین “to chat”. Bunga ko‘ra ba‘zi o‘zlashayotgan so‘zlar asl tilda matnga kiritilishi mumkin bo‘lsa-da, ular odatda forscha yozuvga o‘tkaziladi. Ushbu o‘zlashmalar muntazam iste‘moldagi so‘zlar singari ishlatiladi. Ular ba‘zan forscha qo‘shimchalarni ham olishi mumkin (1, 48).

Masalan:

سپس، ما باید یک مجموعه داده پایه جمع آوری کنیم تا مطمئن شویم می توانیم اهداف و پیشرفت آنها را **مونیتور** کنیم در قدمها ی آتی.

*Keyinchalik, olg‘a siljib borayotgan maqsadlarni **kuzatib borish** va amalga oshirilishiga ishonch hosil qilish uchun dastlabki tekshiruvni zimmamizga olishimiz zarur.*

Ushbu misolda keltirilgan مونیتو “monitor” so‘zini kundalik nutqda ko‘p uchratishimiz mumkin. Bu so‘z allaqachon umumiste‘moldagi so‘zga aylangan.

آقا اینا با این فیلترینگشون فقط بازار فیلتر شکن ها را داغ

می کنند.

*Janob, ular bu **filtrlashlari** bilan, faqat bozorning tozalash moslamalarini isitishadi.*

Ushbu misolda esa, o‘zlashgan so‘zga forscha egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan.

Quyida fors tilida eng ko‘p ishlatiladigan chet tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashgan so‘zlarga bir qancha misollarni ko‘rishimiz mumkin:

با وجود کارشناسی های رژیم اشغالگر قدس، برخی کشور های منطقه و تدریهای آمریکا به سرانجام رسید

*Quddusning **istilo rejimi** borasidagi tajribasiga qaramasdan, hududdagi ba‘zi mamlakatlar va AQShning radikallari nihoyat yetib keldilar.*

جهانگیری با بیان این که **روابط سیستم بانکی**، سوئیفت، گشایش ال سی و استفاده از منابع مالی داخلی که در خارج از کشور قرار دارد.

*Jahongiriyning aytishicha, **bank sistemasi, SWIFT, LCning ochilishi, ichki moliyaviy manbalardan foydalanish xorijga oiddir.***

راکتور تحقیقاتی آب سنگین اراک، در چارچوب یک همکاری بین المللی به یک راکتور تحقیقاتی مدرن و پیشرفته و بااستاندارد سطح بالای بین المللی، تبدیل خواهد شد.

*Iroqdagi og‘ir suv **tadqiqot reaktori** xalqaro hamkorlikning bir qismi bo‘ladi.*

تلاش برای تثبیت "دمکراسی" همگونی نظری هر دو

رئیس جمهوری بود.

Demokratiyani mustahkamlash uchun qilingan sa'y-harakat ikki prezidentning nazariy samaradorligi edi.

به گزارش وزیر امور خارجه و رئیس سازمان انرژی اتمی از روند مذاکرات دستوردهای حاصل از اجرای شدن برجام اختصاص داشت.

Atom Enerjiyasi Tashkilotining rahbari va davlat kotibiga ko'ra, muzokaralarning kelishuvi ijroning ta'minlanishi natijasida sodir bo'ldi.

این سفر اروپایی ابتدا قرار بود در نوامبر انجام شود ولی به دلیل حملات تروریستی پاریس لغو شد.

Ushbu Yevropa safarining noyabrda o'tkazilishi rejalashtirilgan edi, biroq u Parijdagi terroristik hujum tufayli bekor qilindi.

Quyidagi jadvalda boshqa misollarni ham ko'rishimiz mumkin:

Forscha	Inglizcha	O'zbekcha
سایتها	sites	saytlar
پسوردتان	your password	parolingiz
وایرلس	wireless	simsiz
تایم لاین	timeline	vaqt jadvali
نوستالژی	nostalgia	nostalji

Jadvaldagi ba'zi so'zlarning fors tiliga kalkalangan variantlarini ham uchratish mumkin. Masalan وایرلس so'zi "wireless" wire+-less, "wire" "sim" fors tilidagi سیم *sim* so'ziga, -less qo'shimchasi o'zbek tilidagi -siz, fors tilidagi بی *bi* inkor qo'shimchasiga teng keladi va بی سیم deb tarjima qilinadi.

Fors tilida neologizmlar ikki ildizning birikib, qo'shma so'z hosil bo'lishidan ham paydo bo'ladi. Bu usul fors tilidagi samarali usullardan biri hisoblanadi. Misol uchun راهکار *rāhkār* so'zi "rāh" - "yo'l" (path) va "kā" — "ish" (work) so'zlarining birikuvidan hosil bo'lib, ingliz tilida "guideline" — yo'l boshlovchi, yoki "solution" — yechim degan ma'noni bildiradi;

